

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA YA'NI O'QUVCHILARGA XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULARDA O'RGATISH METODIKASI

Madaminova Madinaxon Baxodirjon qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik yoshdagi o'quvchilarga chet tillarini o'rgatishning innovatsion usullari va qanday qilib turli murakkab atamalarni tushunib o'rganishning maslahatlari haqida.

Kalit so'zlar: zamonaviy metodlar, xorijiy til, kichik yoshdagi bolalar, grammatika, yangi so'zlar, baliq skeleti o'yini, hikoya orqali so'z yodlatish metodikasi, ko'nikma, psixologiya.

Kirish. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'rgatishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida maktabgacha talim muassasalarida kichik yoshdagi bolalardan boshlab xorijiy tillarni o'rgatishga yonaltirilganligi, maktablarda esa xorijiy tillarni mukammal o'rgatishga qaratilgan turli xildagi audio darsliklarni korsatishimiz mumkin. Hozirgi kunda nafaqat maktablarda balki, litsey, kollej o'quvchilariga, oliy oquv yurtlari talabalariga hamda turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini xususan, ingliz tilini o'rgatish yolga qo'yilgan. Til o'rganish ham yosh davrlariga bogliq. Psixologlar tomonidan xorijiy tillarni kichik yoshdagi bolalardan boshlab o'qitish samaraliroq ekanligi aytiladi. Shuningdek, kichik yoshdagi bolarning xotirasi kuchli va rivojlanayotgan bo'lishi ko'p marotaba hayotiy dalilarga asoslanib isbotlanadi. Masalan, ingliz tilidagi turli xil ranglarni yoki boshqa bir turdagi buyumlarni kichik yoshdagi bolalarga o'yin tariqasida yoki bo'lmasa shu narsani ko'rstish orqali o'rgatilganda yosh bolalar shu narsaga qiziqishadi hamda o'sha narsani boshqa tildagi nomini tezlik bilan xotirasiga joylab olishadi. Katta yoshdagi insonlar uchun esa bu qiziq emas va ularning ma'lumotlarni qabul qilish qobiliyati susaygan boladi va organgan malumotlarini tez unutib yuborishi ham mumkin.^[1]

Ikkinchi tomondan esa, kichik yoshdagi bolalar (visual) ya'ni ko'rib o'rganuvchilar safiga kirishi ko'plab psixologlar tomonidan e'tirof etiladi. Masalan, biror so'zni ingliz tilidagi nomini ko'rsatish orqali o'rgatilganda shu narsani ikkinchi marotaba ko'rganida beixtiyor uning inglizcha nomi yodiga tushadi. Darsni

samarali va qiziqarli bo`lishi ko`p hollarda o`qituvchiga bog`liqligi yuzaga chiqadi. Shuning uchun , kichik yoshdagi bolalarni o`qitayotgan o`qituvchi har bir narsaga ya`ni detallarga kreativ yondoshishlari talab etiladi. Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarga asosan til o`rgatishda o`yin rasm , qo`shiq va she`rlardan foydalanish ancha samaraliroq usul hissoblanadi. Chunki, ularning miyasida asosiy tushuncha rasmlil holda tasvirlanadi. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga qiziqishadi hamda ko`proq e`tibor qaratishadi. Shuning uchun , har bir o`qituvchi o`quvchi bolalariga uzatayotgan ma`lumotini ularning qiziqishlari hamda salohiyatlarini inobatga olgan holda tanlashlari katta ahamiyatga ega ekanligini bilgan holda dars materiallarini ko`rib chiqishi talab etiladi. Jumladan “ Baliq skeleti” (Skeloton of fish) o`ynini bolalarning ingliz grammatikasi mustahkamlanishiga yordam beradi . Bu o`ynini o`ynash uchun bolalar dastlab, ikki guruhga ajratib olinadi va baliq skleti shaklida qirqib olingan qog`ozcha kerak bo`ladi va bu qog`ozlar ikki guruhga bittadan qilib beriladi. Unda o`tgangalgi mavzuni hamda o`rgangan so`zlari gap shaklida lekin noto`g`ri ketma -ketlikda baliqchanning har bir suyakchasiga yozilgan bo`ladi . Bolalar esa o`sha gaplarni to`g`irlashlari yoki tushib qoldirilgan yangi o`rgangan so`zlarini topishlar lozim bo`ladi. Bu metod orqali ularda yangi o`rganayotgan so`zlarini mustahkamlashga va grammatik salohiyatlarini oshirishga yordam beriladi.

“Yashil va qizil kartochkalar bilan ishlash” metodi . Bu metod orqli ham o`qituvchilarning ham o`quvchilarning vaqtlarini tejash mumkin bo`ladi. Bu usul ham oldindan tayyorgarlik qilinishini taqozo etadi chunki , bizga ikki xildagi rangli kartochkalar kerak bo`ladi. Birinchi navbatda ,o`quvchilarni ikki guruhga ajratib olish zarur bo`ladi so`ngra o`qituvchi birma –bir hayvonlarning yoki boshqa bir buyumlarning rasmi tushirilgan qog`ozchalarni ko`rsatgan holda so`ray boshlaydi ya`ni o`sha varoqdagi hayvonni inglizchadagi nomini aytadi. O`quvchilar esa agar aytilgan javob to`g`ri bo`lsa yashil rangdagi kartochkani ko`tarishadi agar noto`g`ri bo`lsa qizil rangdakisini ko`tarishadi. Shu tarizda o`yin davom etadi va o`qituvchi har bir to`g`ri javob uchun 1 balldan -guruhlarni baholab borishi zarur. Bu esa o`quvchilarning diqqatini bir joyga jalb qilishga hamda vaqtni unumli o`tishiga katta hissa qo`shadi.

Yana bir yangi metod turlarida biri bu hikoya tuzish orqali yangi so`zlarni o`rgatish metodikasidir. Buning uchun o`qituvchi dars oldidan kichik varoqchalarga har xil harakatlarni rasmini chizib olishi joiz bo`ladi, keyin esa u rasmlardagi harakatlarni inglizcha nomini aytib, ko`rsatgan holda hikoya tuza boshlaydi . So`ngra ushbu rasmlarni ko`rsatgan holda o`quvchilardan foydalangan yangi so`zlarni ketma –ket so`rab oladi . Bu usul ham so`zlarni o`rganishda ancha qulay va samarali metod hissoblanadi. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, yosh bolalar har bir narsani rasmlil tarzda ongiga joylashtiradi .Bu metodika aynan kichik yoshdagi o`quvchilarga mos kelishini

ko`rishimiz mumkin. Sababi, ular har bir ko`rgan so`zlarini ushbu metod orqali aniq va yaqqol eslab qolishlari foizini ko`paytiradi.

Keyingi navbatdagi mashg`ulot (snowball) ya`ni “qor bo`ron” o`yinidir. Bu mashg`ulotni o`tkazish uchun dastavval ,har birlari bittadan avval o`rgangan so`zlarini varoqchalarga yozib olishadi keyin o`qituvchi tomonidan varoqchadagi so`zlarning hammasi dumoloq shaklida buklab katta koptok yasab olinadi va bolalar esa aylana shaklida turib olishadi. Keyin bolalar koptokchani bir birlariga uloqtira boshlaydilar. O`qituvchi ularni to`xtashga buyurganda esa ular to`xtashadi va agar koptokcha kimning qo`lida qolgan bo`lsa ,qog`ozdan yasalgan koptokdagi varoqchani bittasini oladi va yozilgan so`zni tarjimasini topishi va uni kim tomonidan yozilganligini topishi kerak bo`ladi .Agar uni topa olsa o`yinni davom ettiradi yoki topa olmasa o`yindan chetlatiladi .Bu mashg`ulot orqali o`quvchilar diqqatini jamlashiga, bir birlarini yaxshiroq anglashiga va shu bilan bir qatorda so`zlarni ma`nosini chuqur anglashga undash mumkin.[²].

Xulosa.

Xulosa o`rnida aytish joizki, bolalarning qiziqishlari va biror fanni yoki tilni o`rganishga bo`lgan ishtiyoqlari ularning kundalik bajarayotgan ishlariga, o`yinlariga asoslanadi. Bolalarni xorijiy tillarni mukammal o`rganishida faqatgina o`rgantilayotgan tilni ularning qiziqishlaridan hamda olgan bilim ko`nikmalaridan kelib chiqqan holda tanlanilishi maqsadga muvofiq bo`lishi yaqqol namoyon bo`ladi . Agar o`rgatilayotgan ma`lumot ta`lim oluvchiga qiziqarli va tushunarli yetkazilmasa, ta`lim oluvchi shaxs unga e`tabor bergisi kelmaydi bu esa fanni zaif o`rganilishiga olib keladi.

Foydalanilgan saytlar:

1. KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O`QITISH METODLARI
<https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-yoshdagi-bolalarga-ingliz-tili-o-qitish-metodlari/viewer>.
2. https://youtu.be/k704_NxdNvY?si=xTeMivEv0j63CR
3. https://youtu.be/k704_NxdNvY?si=1DjbVRf5oCgOdh-w.